

jet

by EAST TELECOM

hophop TV

xizmatini o'rnatish va boshqarish bo'yicha

qo'llanma

hophop



Veb-saytga havola  <https://hophop.tv/>

HOP HOP TV - bu foydalanuvchilarga qulay xususiyatlarni taklif qilish orqali oddiy kabel televideniya sifatining imkoniyatlaridan ustun, qulay va funksional dastur:

- Bir vaqtning o'zida 5 ta qurilmadan tomosha qilish imkoniyati;
- Tomosha qilishni to'xtatish va istalgan qulay vaqtda davom etish;
- Sevimli dasturingizni o'tkazib yuborgan bo'lsangiz, arxiv funksiyasidan foydalaning va istalgan vaqtda tomosha qiling;
- Sevimli kanallaringizga tezkor kirish uchun "Sevimlilar" bo'limiga telekanallarni qo'shing;
- Kelgusi hafta uchun televizion dastur yordamida tomosha qilish vaqtingizni rejalashtiring
- Bir kun, bir soat yoki efir boshlanishidan oldin havola orqali eslatmalarini o'rnating.



Sistemaga kirish uchun sizga **login va parolingiz** kerak bo'ladi. Loginingizga «@hophop.tv» qo'shimchasini qo'shishingiz kerak va sizning jet shaxsiy kabinetidagi parolni kiriting. Masalan, login - tpsxxxxxxx@hophop.tv va shaxsiy kabinetidagi parol.

Hophop.tv

Ilovasini qanday o'rnatish kerak ?



Smartfon, planshet, Android TV, Android TV qurilmasi (Smart TV)

- 01 Qurilmangizda Google Play Store/App Store-ni oching va qidiruv satriga "HopHop TV Uz"yozing;
- 02 Natijalar ro'yxatidan "HopHop TV Uz" ilovasini tanlang;
- 03 Ilovani o'rnatish va oching.

Samsung Smart TV (Samsung Store)

- 01 Televizoringizda Samsung Smart Hub-ni oching";
- 02 "Ilovalar" bo'limida qidiruv satrini toping va "Hop TV Uz"deb yozing;
- 03 "O'rnatish" tugmasini bosing va o'rnatish tugashini kuting;
- 04 O'rnatish tugagandan so'ng dasturni oching.

LG Smart TV (LG Store)

- 01 Televizoringizda LG Content do'konini oching;
- 02 Qidiruv satriga "Hop TV Uz"deb yozing;
- 03 "O'rnatish" tugmasini bosing va o'rnatish tugashini kuting;
- 04 O'rnatish tugagandan so'ng, dasturni oching.



Hophop.tv dan shaxsiy kompyuter yoki noutbukda qanday foydalanish mumkin

- 01 Shaxsiy kompyuteringizda brauzerni oching va hophop.tv veb-saytga o'ting ;
- 02 Foydalanuvchi nomi va parol yordamida profilingizga kiring;
- 03 Onlayn kinoteatr ostida ko'rmoqchi bo'lgan film yoki serialni tanlang;
- 04 "Play" tugmasini bosib va tomosha qilishdan zavqlaning.

Ko'rish vaqtida ilovani boshqarish

- 01 Ilovani oching va ko'rmoqchi bo'lgan kanal yoki dasturni tanlang;
- 02 Ko'rishni boshqarish uchun ijro etish tugmalaridan foydalaning (pauza, orqaga qaytarish, ovoz balandligini boshqarish);
- 03 Keyingi dasturga o'tish uchun qurilmangizdagi tugmalardan yoki sensorli ekrandan foydalaning.

Asosiy boshqaruv elementlari:



Ushbu belgini bosish orqali "Sevimlilar" bo'limiga kanal qo'shing;



Ushbu belgi sizga tasvir hajmini qurilmangizga moslashtirishga imkon beradi;



Bir qurilmadan boshqa bir qurilmaga o'zgartirsangiz ham sizni to'xtagan vaqtingizga qaytaradi;



Efir boshidan boshlab ijro etishni boshlaydi;



Keyingi hafta uchun dasturlarni va oldingi 7 kun uchun arxivni ochadi. «Play» tugmasi yordamida arxivdan dasturlarni ko'rishni boshlasangiz bo'ladi;



Bir kun, bir soat yoki efir boshlanishidan oldin uzatish eslatmasini o'rnatishga imkon beradi;



Sozlamalarda video sifati va audio trek tilini o'zgartiradi. Tilni almashtirish faqat ba'zi kanallar uchun mavjud.

Tez-tez so'raladigan savollar

- 01 To'lovdan keyin qancha vaqt o'tgach, xizmat qurilmalarda ishlaydi?**
Xizmat obuna uchun to'lovni amalga oshirgandan keyin 5 daqiqadan so'ng ishlaydi.
- 02 HopHop TV xizmati uchun Login va parolimni qanday bilsam bo'ladi?**
Login va parolingiz jet shaxsiy kabinetdagi bilan bir xil. Faqat loginingizga "@hophop.tv" qo'shimchasini qo'shishingiz kerak. Masalan, login - tpsxxxxxx@hophop.tv
- 03 Agar Login yoki parolni unutgan bo'lsam nima qilishim kerak?**
Bunday holda siz bizning qo'ng'iroq markazimizga 78 150 00 00 raqami orqali murojaat qilishingiz kerak.